Sanepidqo'm laboratoriyalari laboranti (Bakteriologik)
mutaxassisligi bo'yicha shakllantirilgan test savollari ro'yxati

1. Meningokokk kimlar uchun xavfli:
- chaqaloqlar
- yosh bolalar
- kattalar
- qariyalar

2. Yorug'lik mikroskopining mexanik qismiga kiradi:
- kondensor
- tubus
- ob'ektiv
- okulyar

3. Differentsial-diagnostik oziq muhitlarga kirmaydi:
- Endo muhiti
- Go'shtli peptonli agar
- Giss muhiti
- tuxumli- tuzli agar

4. Mikroskopik usul bilan bakteriyaning qanday xususiyati o'rganiladi:
- morfo-tinktorial
- kultural
- antigenlik
- toksigenlik

5. Yorug'lik mikroskopining optik qismiga kirmaydi:
- kondensor
- ob'ektiv
- okulyar
- tubus

6. Yorug'lik mikroskopining kattalashtirish ko'rsatkichi qanday aniqlanadi:
- ob'ektiv kattaligi okulyar kattaligiga ko'paytiriladi
- ob'ektiv va okulyar ko'rsatkichlarining farqi aniqlanadi
- ob'ektivning kattalashtirish ko'rsatkichiga ko'ra
- okulyarning kattalashtirish ko'rsatkichiga ko'ra

7. Maxsus mikroskopiya usullariga kirmaydi:
- fazo-kontrast
- qorong'ilashtirilgan maydonda
- lyuminestsent
- fotokolorimetrik

8. Qorong’ilashtirilgan maydondagi mikroskopiya asoslanadi:
- ob'ektning lyuminestsentsiyasiga
- ob'ektga yon tarafdan yorug’lik nurining difraktsiyasiga
- yorug’lik to’lqini interferentsiyasiga
- ob'ektning yorug’lik nurini yutishiga

9. Oddiy va murakkab bo’yash usullarining farqi nimada?
- bakteriyalar morfologiyasida
- mikroskopiya usulida
- ishlatiladigan bo’yoqlar sonida
- bo’yoqlarning narxida

10. Yuqumli kasalliklar diagnostikasida asosiy bo’yash usuli:
- azur-eozin bilan bo’yash
- fuksin bilan bo’yash
- Gram usuli
- Neysser usuli

11. Surtmani fiksatsiya qilishda quyidagilardan qaysi biriga ta'sir ko’rsatmaydi:
- yuqish xavfini kamaytiradi
- surtmani oynaga fiksatsiyalaydi
- bo’yoqlarni mikrob hujayrasiga kirishini yaxshilaydi
- mikroskopning kattalashtirish ko’rsatkichini oshiradi

12. Kimyoviy fiksatsiyada ishlatilmaydi:
- ishqor eritmasi
- Nikiforov aralashmasi
- metil spirt
- xloroform

13. Bakteriyalar morfologiyasi nimaga bog’liqligini ko’rsating:
- oziq muhit konsistentsiyasiga
- hujayra devoriga
- qo’llanilayotgan bo’yoqlarga
- surtmani fiksatsiya qilish usuliga

14. Mikroorganizmlar shakli bo’yicha bo’linadi:
- diplokokk, streptokokk, stafilokokk
- batsilla, bakteriya
- tayoqcha, kokk, mikoplazma
- kokk, tayoqcha, egilgan- bukilgan

15. Yuqumli kasalliklar diagnostikasida mikroskopik usulning afzalligini ko’rsating:
- tashhis qo’yish vaqtini tezlashtirishi mumkinligi, usulning oddiyligi

- ba'zi kasalliklarda mustaqil diagnostik ahamiyatga egaligi
- shartli-patogen mikroorganizmlarning klinik ahamiyatga ega miqdorini aniqlash mumkinligi
- barchasi to’g’ri

16. Yuqumli kasalliklar diagnostikasidagi mikroskopik usulning kamchiligiga kirmaydi:
- mikroorganizmlarning faqat morfo - tinktorial xususiyatlarini aniqlaydi
- natija mikropreparatning sifatiga bog’liq
- natija tekshiriladigan namunaga bog’liq
- usulning oddiy va imkon darajasida ekanligi

17. Gram usulida bo’yoqlarni qo’llashning ketma - ketligi:
- fuksin eritmasi, etil spirti, Lyugol eritmasi, gentsian- binafsha, suv
- gentsian- binafsha, Lyugol eritmasi, etil spirti, suv, fuksin eritmasi, suv
- fuksin eritmasi, Lyugol eritmasi, etil spirti, suv, gentsian- binafsha
- Lyugol eritmasi, gentsian- binafsha, etil spirti, suv, fuksin eritmasi, suv

18. Bakteriyaning nativ preparati nimani o’rganishda qo’llaniladi:
- Harakat
- virulentlik
- antigenlik
- antibiotiklarga sezuvchanlik

19. Spora bakteriya hujayrasida terminal joylanishi, bu……..:
- bakteriya hujayrasining uchida
- bakteriya hujayrasining o’rtasida
- bakteriya hujayrasining uchiga yaqin
- bakteriya hujayrasining hamma yerida

20. Immersion mikroskopiyada qo’llaniladi:
- ob'ektiv x40, qavariq ko’zgu, tushirilgan kondensor
- ob'ektiv x90, yassi ko’zgu, kondensor buyum stolchasi darajasida
- ob'ektiv x8, qavariq ko’zgu, tushirilgankondensor
- ob'ektiv x90, qavariq ko’zgu, kondensor buyum

21. Fiksatsiyalangan bo’yalgan surtmaning imkoniyatiga kirmaydi:
- yuqish xavfini kamaytirish
- mikroorganizmlar harakatini aniqlash
- mikroorganizmlar morfologiyasini o’rganish
- mikroorganizmlar strukturasini o’rganish

22. Fiksatsiyalangan surtmani o’rganish uchun asosan qanday mikroskopiya qo’llaniladi:
- qorong’ilatilgan maydon
- yorug’ maydon

- fazo- kontrast
- lyuminestsent

23. Murakkab bo’yash usuli nima uchun qo’llaniladi:
- bakteriyalar biokimyoviy xossasini o’rganish
- bakteriyalar antigenlik xossasini o’rganish
- mikrob hujayrasi strukturasini aniqlash
- bakteriyalar virulentligini aniqlash

24. Gram bilan bo’yalish nimaga bog’liq:
- bakteriyalar morfologiyasiga
- sitoplazmatik membrana tuzilishiga
- oziq muhit tarkibiga
- hujayra devorining tarkibi va tuzilishiga

25. Nativ surtma mikroskopiyasining turini ko’rsating:
- qorong’ilatilgan maydon
- skaner
- oddiy ko’z bilan
- nusxa ko’chirish

26. Mikroorganizmlarni birinchi bo’lib kim ochgan:
- R. Kox
- L. Paster
- Anton van Levenguk
- T. Shvann

27. Egilgan - spiralsimonlarga kiradigan mikroorganizmni ko’rsating:
- mikrokokklar
- batsillalar
- klostridiyalar
- spiroxetalar

28. Mikrobiologik amaliyotga anilin bo’yoqlar bilan bo’yashni kim kiritgan:
- R. Kox
- L. Paster
- Anton van Levenguk
- L.Romanovskiy

29. Tayoqchasimonlarga kiradigan mikroorganizmni ko’rsating:
- tetrakokk
- streptokokk
- klostridiya
- spirilla

30. Sharsimonlarga kiradigan mikroorganizmni ko’rsating:

- batsilla
- sartsina
- vibrion
- aktinomitset

31. Bakteriyalar shaklini belgilaydi:
- nafas olish tipi
- bo'linish tipi
- yadro membranasi
- hujayra devori

32. Hujayra devorining tarkibiga ko'ra bakteriyalarni biri-biridan farqlashga asoslangan usulni kim ishlab chiqqan:
- X. Gram
- R. Kox
- L. Paster
- I.I. Mechnikov

33. Bakteriya hujayrasining doimiy tuzilmasi hisoblanmaydi:
- ribosoma
- sitoplazma
- xivchin
- nukleoid

34. Hujayra devori bo'lmagan bakteriyani ko'rsating:
- aktinomitset
- mikoplazma
- rikketsiya
- batsilla

35. Hujayra devorining vazifasiga kirmaydi:
- energetik almashinuvda ishtirok etadi
- bakteriya shaklini belgilaydi
- tashqi omillardan himoya qiladi
- antigen saqlaydi

36. Bakteriyalar harakatchanligini bildiradigan belgini ko'rsating:
- kapsulasining borligi
- Gram bo'yicha bo'yalishi
- yarim suyuq agarda o'sishi
- sporasining borligi

37. Bakteriyalar sporasiga xos:
- ko'payish usuli
- xromosomaga bog'liq bo'lmagan irsiy omil
- tinch holatdagi reproduktiv hujayralar

- hujayra bo’linish jarayonida hosil bo’ladi

38. O’tkir so’zakning mikrobiologik tekshirish usullarini ko’rsating:
- mikroskopik, bakteriologik
- bakteriologik, biologik
- biologik, serologik
- serologik, allergik

39. Meningokokkli infektsiyalarning organizmga kirish yo’lini ko’rsating:
- shikastlangan teri
- burun – halqum shilliq qavati
- shikastlanmagan teri
- uretraning shilliq qavati

40. Meningokokkli nazofaringitning asosiy mikrobiologik tekshirish usulini ko’rsating:
- bakteriologik
- serologik
- allergik
- biologik

41. Bakterial ichburug’ qo’zg’atuvchisi qaysi avlod vakili hisoblanadi:
- Escherichia
- Shigella
- Salmonella
- Yersinia

42. Bakterial ichburug’ning qo’zg’atuvchisi emas:
- Shigella dysenteriae
- S. flexneri
- S. boydi
- S. typhi

43. Bakterial ichburug’ qo’zg’atuvchisini ajratib olish uchun ishlatiladigan elektiv muhitlarni belgilang:
- tuxumli- tuzliagar, qonli agar
- Ploskirev, Endo
- zardobli agar
- shokoladli agar

44. Bakterial ichburug’ qo’zg’atuvchilari qaysi xossalari bo’yicha farq qilmaydi:
- morfologiyasi, Gram bo’yicha bo’yalishi
- biokimyoviy xossalari
- antigenlik xossalari
- yuqish omillari

45. Bakterial ichburug'ning tarqalishiga xos emas:
- antroponoz infektsiya
- ichak infektsiyasi
- havo-tomchi infektsiyasi
- "iflos qo'l" kasalligi

46. Bakterial ichburug' qo'zg'atuvchisining yuqish yo'llari:
- havo-chang
- alimentar, kontakt
- transplatsentar, jinsiy
- transmissive

47. Bakterial ichburug'ning bakterial diagnostikasida tekshiriluvchi material:
- najas
- qon
- likvor
- qon zardobi

48. Bakterial ichburug'ning mikrobiologik diagnostikasida qo'llaniladigan asosiy usulni ko'rsating:
- mikroskopik
- biologik
- bakteriologik
- alllergik

49. Qorin tifi, A va B paratiflar qo'zg'atuvchilari qaysi avlodga kiradi:
- Yersinia
- Escherichia
- Salmonella
- Shigella

50. Qorin tifi, A va B paratiflar qo'zg'atuvchilari farqlanadi:
- morfologiyasi, Gram bo'yicha bo'yalishi
- kultural, biokimyoviy xossalari
- biokimyoviy, antigenlik xususiyati
- antigenlik, virulentlik xossalari

51. Neysser usulida bakteriyaning qanday tuzilmasini aniqlash mumkin:
- sporasini
- xivchinlarini
- kapsulasini
- volyutin donasini

52. Spora hosil qiluvchi mikroorganizmlarni ko'rsating:

- stafilokokk, tayoqcha
- batsilla, klostridiya
- stafilokokk, aktinomitset
- streptokokk, spiroxeta

53. Jinsiy kiprikchalarning asosiy vazifasi nimadan iboratligini toping:
- lokomotor
- irsiy axborotni o'tkazish
- bakteriofaglar adsorbtsiyasi
- antifagotsitar

54. Bakteriya hujayrasining doimiy tuzilmasi hisoblanadi:
- xivchin
- spora
- kapsula
- nukleoid

55. Bakteriyaning sporasi:
- ko'payish shakli
- tinch holdagi reproduktiv hujayra
- virulentlik omili
- plazmida

56. Qanday bakteriya uchun volyutin donasi– differentsial belgi hisoblanadi:
- qoqshol klostridiyasi uchun
- bo'g'ma korinebakteriyasi uchun
- kuydirgi batsillasi uchun
- stafilokokklar uchun

57. Bakteriyalar harakatini aniqlab bo'lmaydigan holatni ko'rsating:
- "osilgan tomchi"
- shilliqli o'sishi bo'yicha
- "ezilgan tomchi"
- yarimsuyuq agarli ustunchaga ekish

58. Qaysi tuzilmani aniqlash differentsial-diagnostik ahamiyat kasb etadi:
- sitoplazmatik membrana
- ribosoma
- mezosoma
- spora

59. Tashqi muhitdagi patogen mikroorganizmlarni yo'q qilish nima deb ataladi:
- aseptika
- dezinfektsiya
- antiseptika

- pasterizatsiya

60. Tashqi muhitdan to’qimaga mikroorganizmlar tushishini oldini olishga qaratilgan fizikaviy chora- tadbirlar nima deb ataladi:
- dezinfektsiya
- aseptika
- sterilizatsiya
- tindalizatsiya

61. Ob'ektlardagi mikroorganizmlarni, ularning sporalarini, viruslarni to’liq yo’qotish nima deyiladi:
- aseptika
- antiseptika
- sterilizatsiya
- pasterizatsiya

62. Zamonaviy sterilizatsiya usullariga kirmaydi:
- qaynatish
- avtoklavlash
- qizdirish
- ionlashgan nurlanish

63. Antiseptikada ishlatilmaydigan moddani ko’rsating:
- vodorod peroksidi
- 960 li etilspirt
- kaliy permanganat eritmasi
- yodning spirtli eritmasi

64. Paster pechida quyidagilardan qaysi biri sterillanadi:
- instrumentlar
- suyuq oziq muhitlar
- bir martalik shpritslar
- rezinali qo’lqop

65. Sterilizatsiya rejimi nazorati uchun avtoklavlashning har siklida qo’llaniladi:
- biologik indikatorlar – bakteriya sporasi
- manometr ko’rsatkichi
- biologik indikatorlar – spora hosil qilmaydigan bakteriyalar kulturalari
- kimyoviy indikatorlar – IS-120, IS-132

66. Mikrobiologik amaliyotda oziq muhitlar qo’llanmaydigan holat:
- mikroorganizmlarni o’stirish
- immunogrammani aniqlash
- mikroorganizmlarning biokimyoviy xossasini aniqlash
- kulturaning antibiotiklarga sezgirligini aniqlash

67. Mikroorganizmlarni o’stirish uchun qo’llanadigan oziq muhitlar bakteriyaning qanday xususiyatga ko’ra tanlanadi:
- antigen tuzilishi
- fiziologik
- morfologiya
- virulentlik

68. Oziq muhitlarga qo’yiladigan talablarga kirmaydi:
- vodorod ionlarining optimal kontsentratsiyasi
- rangi
- sterilligi
- engil hazm bo’ladigan moddalarning bo’lishi

69. Alohida turdagi mikroorganizmlarni o’stirish uchun qanday oziq muhitlar zarur bo’ladi:
- differentsial- diagnostik
- qattiq
- elektiv
- suyuq

70. Elektiv oziq muhitlarga qanday oziq muhit kirmaydi:
- tuxumli - tuzli agar
- Giss muhiti
- Levenshteyn muhiti
- ishqoriy agar

71. Sof kulturani ajratib olish va identifikatsiyalash usuli qanday nomlanadi:
- bakteriologik usul
- allergik usul
- serologik usul
- mikroskopik usul

72. Kasalliklar diagnostikasida bakteriologik usulning maqsadi:
- qo’zg’atuvchini antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash
- sof kultura olish, uni identifikatsiyalash va antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash
- immun holatni aniqlash
- qo’zg’atuvchining patogenligini aniqlash

73. Bakteriologik tekshirishda tekshiriladigan namunaga kirmaydi:
- balg’am
- zardob
- qon
- siydik

74. Tekshiriladigan namunani qattiq oziq muhitga ekishda foydalanilmaydi:
- Pintset
- shpatel
- tampon
- nina

75. Mikrobiologik amaliyotda bakteriologik usul qanday hollarda qo'llanilmaydi:
- yuqumli kasalliklar diagnostikasida
- immun holatni baholash
- bakteriya tashuvchilikni aniqlash
- ob'ektlarning sanitar- gigienik holatini o'rganish

76. Bakteriologik usulning 1-bosqichi maqsadini ko'rsating:
- alohida koloniyalarni olish
- tekshiriluvchi material mikroskopiyasi
- sof kulturani ajratish va to'plash
- tekshiriluvchi kulturani identifikatsiyalash

77. Bakteriologik usulning 1-bosqichida o'tkaziladi:
- tovuq embrionini zararlash
- kulturaning biokimyoviy xossasini o'rganish
- tekshiriluvchi materialni ekish
- tekshiriluvchi materialni ekish uchun to'qima kulturasi tanlanadi

78. Qattiq oziq muhitda bitta hujayradan hosil bo'lgan mikroorganizmlar populyatsiyasi nima deb ataladi:
- shtamm
- koloniya
- biovar
- sof kultura

79. Bakteriologik usulning 2-bosqichi maqsadini ko'rsating:
- sof kulturani identifikatsiyalash
- alohida koloniyalarni olish
- sof kulturani to'plash
- tekshiriluvchi materialni antibiotikogrammasini aniqlash

80. (x8) kattalashtirishda koloniyaning qanday xususiyatlari o'rganiladi:
- cheti, rangi
- cheti, strukturasi
- rangi, yuzasi
- shakli, kattaligi

81. Alohidalangan koloniyalardan tayyorlangan surtmaning mikroskopiyasi nima maqsadda o'tkaziladi:

- morfotinktorial xossasini o’rganish
- kultural xossasini o’rganish
- virulentlik omillarini aniqlash
- bakteriyalarni alohidalash

82. Nima maqsadda alohidalangan koloniyalardan qiyalantirilgan agarga ekiladi:
- bakteriyalarni o’ldirish maqsadida
- sof kulturani to’plash
- harakatini aniqlash
- fagga nisbatan sezuvchanligini aniqlash

83. Obligat anaeroblar metabolizmi turini ko’rsating:
- oksidlovchi
- bijg’ish
- oksidlovchi, bijg’ish
- indutsibel

84. Fakultativ-anaerob mikroorganizmlar metabolizmi turini ko’rsating:
- oksidlovchi
- bijg’ish
- oksidlovchi, bijg’ish
- indutsibel

85. Anaerobioz holatini yaratish usuliga kirmaydi:
- fizikaviy
- biologik
- kimyoviy
- genotipik

86. Fizikaviy usulda anaerobioz holatini yaratishda nimadan foydalanish mumkin:
- gazli paket
- anaerostat
- termostat
- Fortner usuli

87. Fizikaviy usulda anaerobioz holatini yaratish nimaga asoslangan:
- kislorodni mexanik ravishda yo’qotish
- aerob va anaerob mikroorganizmlarni birgalikda o’stirish
- kimyoviy sorbentlarni qo’llash
- oziq muhitlarni filtrlash

88. Obligat anaeroblarga qaysi mikrob kiradi:
- stafilokokk
- psevdomonada

- klostridiya
- enterobakteriya

89. Kimyoviy usulda anaerobioz holatini yaratish nimaga asoslangan:
- kislorod partsial bosimining pasayishi
- kimyoviy sorbentlarni qo'llash
- aerob va anaerob mikroorganizmlarni birgalikda o'stirish
- vakuum yaratish

90. Nafas olish bo'yicha bakteriyalar turlariga kirmaydi:
- obligat anaerob
- obligat aerob
- fakultativ anaerob
- litotrof

91. Bakteriyalarning kultural xossasiga kiradi:
- bakteriyalar morfologiyasi
- bo'yoqlarni qabul qilish qobiliyati
- metabolizm turi
- koloniya morfologiyasi

92. Bakteriologik usul 3-bosqichining maqsadi nimadan iborat:
- alohidalangan koloniyalarni olish
- tekshiriluvchi namunadan qo'zg'atuvchini topish
- sof kulturani identifikatsiyalash
- ajratilgan kulturaning sofligini aniqlash

93. Bakteriologik usul 3-bosqichida o'tkazilmaydi:
- ajratilgan kulturaning sofligini aniqlash
- biokimyoviy faollikni aniqlash
- antibiotikogrammani aniqlash
- alohidalangan koloniyani olish

94. Bakteriyalarning harakatchanligi qanday aniqlanishini ko'rsating:
- Gram usulida
- ustunchali yarimsuyuq agarga ekish orqali
- qiyalantirilgan agarga ekib
- kolorimetrik

95. Bakteriyalarning saxarolitik faolligi nimadan dalolat beradi:
- o'sishning mavjudligi
- kislota va gaz kabi metabolizm mahsulotlarining hosil bo'lishi
- ishqor va gaz kabi metabolizm mahsulotlarining hosil bo'lishi
- neytral va gazsimon metabolizm mahsulotlarining hosil bo'lishi

96. Go’shtli peptonli bulyonda bakteriyalarning proteolitik xossalarini aniqlash mezonlarini ko’rsating:
- o’sishning mavjudligi va uning xarakteri
- metabolizmning nordon mahsulotlarini hosil bo’lishi
- serovodorod, indolning hosil bo’lishi
- proteazaning hosil bo’lishi

97. Disk usulida antibiotikogrammani aniqlashga taalluqli emas:
- kultura “gazon” usulida ekiladi
- kultura “maydonchali shtrix” usulida ekiladi
- antibiotiklar shimdirilgan disklar qo’yib chiqiladi
- o’sish to’xtagan zona diametri o’lchanadi

98. Tuproqdagi bo’ladigan spora hosil qiluvchi anaerob infektsiya qo’zg’atuvchisini toping:
- ichak tayoqchasi
- vibrionlar
- gazli gangrena klostridiyasi
- stafilokokklar

99. Tuproqda uchraydigan qoqshol klostridiyasiga xos belgilarni ko’rsating:
- grammusbat tayoqcha, terminal spora hosil qiladi
- grammusbat tayoqchalar,subterminal spora hosil qiladi
- grammanfiy tayoqchalar, markaziy spora hosil qiladi
- grammanfiy tayoqchalar, subterminal spora hosil qiladi

100. Anaeroblarni o’stirishda qo’llanilmaydigan oziq muhitni ko’rsating:
- Seyssler qonli agari
- Kitt-Tarotstsi muhiti
- tioglikol muhit
- Go’shtli peptonli buloyn

101. Bakteriyalarning saxarolitik xossasi qanday oziq muhitda aniqlanadi:
- Go’shtli peptonli bulyon (GPB)
- Go’shtli peptonli agar (GPA)
- Giss muhiti
- Jelatinali

102. Bakteriyalarning saxarolitik xossasi qanday oziq muhitda aniqlanmaydi:
- zardobli
- jelatinali
- uglevodli
- peptonli

103. Antibiotiklarga sezgirlikni aniqlashda o’tkazilmaydi:

- disklar usuli
- seriyali suyultirish usuli
- mikroorganizmlar identifikatsiyasi
- ratsional terapiya maqsadida

104. Gazli gangrena klostridiyasiga xos belgi:
- sporasi terminal joylashgan Gram manfiy
- sporasi subterminal joylashgan, Gram musbat
- spora hosil qilmaydigan kokkobakteriya
- spora hosil qilmaydigan grammanfiy tayoqcha

105. Sof kulturadagi bakteriyalar qanday bakteriyalar hisoblanadi:
- morfovar
- bir turdagi
- biovar
- serovar

106. Mikroorganizmlar sof kulturasini identifikatsiyalash uchun qanday usul qo'llaniladi:
- mikroskopik usul
- mikrobiologik usul
- serologikusul
- allergikusul

107. Kasallikka mikrobiologik usulda tashhis qo'yishdan maqsad nima:
- sof kultura olish, uning identifikatsiyasi va antibiotiklarga sezuvchanlikni aniqlash
- qo'zg'atuvchining virulentligini aniqlash
- immun javob kuchini aniqlash
- mikrob hujayralarini ajratish

108. Antigenlari bilan farq qiluvchi bir turdagi bakteriyalar nima deb ataladi:
- aralash kultura
- sofkultura
- biovar
- serovar

109. Bakteriologik tekshirishda 4- bosqichning maqsadi:
- alohidalangan koloniyalarni olish
- sof kulturani to'plash
- kulturaning identifikatsiyasi va uning antibiotikogrammasini aniqlash
- javobni berish

110. Sil diagnostikasining bakterioskopik usulida qo'llanilmaydi:
- Gram bo'yicha bo'yash

- Sil-Nilsen bo’yicha bo’yash
- boyitilgan material
- lyuminestsent bo’yoqlar (auramin O, rodamin S) bilan bo’yash

111. Tuberkulin – bu:
- vaktsina
- anatoksin
- mikobakteriyaning oqsilli fraktsiyasi
- mikobakteriyaning lipidli fraktsiyasi

112. BTsJ vaktsinasini kim yaratgan:
- Kox
- Kalmet va Garen
- Pirke
- Mantu

113. Veyllonellalar nima uchun kariesogen mikrofloraning antagonisti hisoblanadi:
- sut kislotasini faol iste'mol qiladi
- muhitda faol ravishda kislota hosil qiladi
- mutans ga qarshi bakteriotsin ishlab chiqaradi
- O2 ni faol o’zlashtiradi

114. Mikroorganizmlar klassifikatsiyasi muallifi va taklif etilgan yil?
- Berji,1923
- Berji,1900
- Linney,1892
- Shtiben,1923

115. Qaysi qo’zg’atuvchi R.Kox tomonidan kashf qilingan:
- Sil
- zahm
- rikketsiya
- qutirish virusi

116. Sal egilgan ko’rinishiga ega bo’lgan bakteriyalar nima deb ataladi?
- Vibrionlar
- spirillalar
- treponemalar
- leptospiralar

117. Qaysi tayoqchasimon bakteriyalar zanjir ko’rinishida joylashadi?
- kuydirgi bakteriyasi
- ichburug’
- salmonella
- difteriya

118. Patogen bakteriyalar kapsulasining roli nimadan iborat?
- fagotsitozdan himoya qilish
- qurib qolishdan saqlash
- past haroratdan saqlash
- kimyoviy moddalar tasiridan saqlash

119. Rikketsiyalarning bakteriyalardan asosiy farqlari?
- tuzilishi
- hujayra kulturalarda ko'payishi
- mikrokapsula hosil qilishi
- elektiv muhitlarda ko'payishi

120. Absolyut parazit hisoblangan mikroorganizmni ayting?
- zamburug'
- bakteriya
- rikketsiyalar
- mikoplazmalar

121. Bakteriyani turini farqlashda qanday oziq muhitlar qo'llaniladi?
- oddiy
- sintetik
- elektiv
- differentsial–diagnostic

122. Ma'lum ob'ektdagi mikroorganizmlarni batamom yo'q qilish nima deyiladi?
- Sterilizatsiya
- aseptika
- dezinsektsiya
- dezinfektsiya

123. Bosim ostida bug' yordamida sterillash qanday asbobda o'tkaziladi?
- Avtoklav
- Paster pechi
- quritish shkafi
- sterilizatorda

124. Quruq issiq havo bilan strilizatsiya qilish uchun qaysi asbob qo'llaniladi?
- Paster pechi
- avtoklav
- Kox apparati
- spirt lampasi

125. Giss muhitiga ekilganda qaysi fermentlar aniqlanishini ko'rsating?

- saxarolitik
- patogenlik
- lipolitik
- preteolitik

126. Bir turdagi mikroorganizmlarning boshqa turdagi mikroorganizmlar o’sishini to’xtatishi yoki halok qilishi nima deb aytiladi?
- antagonism
- mutualizm
- parazitizm
- kommensalizm

127. Kokklar qaysi shaklga ega?
- ipsimon
- sharsimon
- tayoqchasimon
- spiralsimon

128. Kokklar o’zaro asosan farqlanadi?
- kiritmalari
- koloniyalari
- xivchinlar soni bilan
- surtmada joylashishi bilan

129. Stafilakokklar surtmada qanday joylashadi?
- 2 tadan
- zanjirsimon
- uzum shingilsimon
- 4 ta bo’lib.

130. Qaysi kokklar Gram usulida manfiy bo’yaladi?
- pnevmokokk
- streptokokk
- stafilakokk
- meningokokk

131. Mikroorganizmlar sporasi qanday funktsiyani bajaradi?
- ko’payish
- turni saqlash
- oqsil sintezi
- informatsiyani etkazish;

132. Bakteriya sporasini aniqlash uchun qaysi bo’yash usuli qo’llaniladi?
- Gram
- Ojeshko
- Neysser

- Romanovskiy-Gimza

133. Sporasi uchida joylashgan klostridiylar qaysi kasallikni qo’zg’atadi?
- qoqshol
- sil
- kuydirgi
- gazli gangrena

134. Bakteriya kapsulasini aniqlash uchun qaysi bo’yash usuli qo’llaniladi?
- Gram
- Ojeshko
- Gins-Burri
- Sil-Nilsen

135. Qaysi tekshiruv materialida sporali bakteriyalarni ko’proq aniqlash mumkin?
- suvda
- tuproqda
- balg’amda
- ovqat qoldiqlarida

136. Yuqumli kasalliklar qo’zg’atuvchilari oziqlanishi bo’yicha qaysi mikroorganizmlarga kiradi?
- ekzotrof
- fototrof
- geterotrof
- xemoautotrof

137. Odamda kasallik qo’zg’atuvchi qaysi mikroblar shartli patogenlarga kiradi?
- Sl. botilinum
- Cl. tetani
- Cl. perfringens
- E.coli

138. Bakteriyalarning qaysi xususiyatlari ularning oziq muhitlarda o’sishini xarakterlaydi?
- biokimyoviy
- kultural
- tinktorial
- antigen tuzilishi

139. Volyutin donachalarini aniqlash uchun qaysi bo’yash usuli qo’llaniladi?
- Ojeshko
- Neysser
- Sil - Nilsen

- Romanovskiy - Gimza usuli

140. Faqat bir turdagi mikroorganizmlar yig’indisiga nima deyiladi?
- biovar
- fagovar
- sof kultura
- serovar

141. Kislorodli sharoitda nobud bo’ladigan mikroorganizmlarning ko’rsating?
- aerob
- obligat anaerob
- obligat aerob
- shartli anaerob

142. Faqat bir turdagi mikroorganizmlar ko’payishidan hosil bo’lgan to’plam nima deyiladi?
- biovar
- fagovar
- serovar
- koloniya

143. Umumiy oziq muhitni ko’rsating?
- qonli agar
- go’shtli peptonli agar
- peptonli suv
- qotirilgan zardob

144. Kasallik chaqiruvchi mikroblar qanday nomlanadi?
- patogen mikroblar
- saprofit mikroblar
- shartli patogen mikroblar
- geterotroflar

145. Foydali mikroblar qanday nomlanadi?
- saprofit mikroblar
- shartli patogen mikroblar
- geterotroflar
- patogen mikroblar

146. Ma'lum sharoitda kasallik chaqirucvhi mikroblar qanday nomlanadi?
- shartli patogen mikroblar
- geterotroflar
- patogen mikroblar
- saprofit mikroblar

147. Achish-bijg'ish jarayoni mikroblar ta'sirida borishini isbotlagan olim?
- L.Paster
- I.I.Mechnikov
- Anton van Levinguk
- R.Kox

148. Z.V.Ermoleva mikrobiologiya fanini rivojlanishida qanday xissa qo’shgan?
- sovet penisillinini ajratib olgan
- mikroskopni kashf qilgan
- fagositoz nazariyasini yaratgan
- achish-bijg'ish jarayoni mikroblar ta'sirida borishini isbotlagan

149. Tuproq tuzilishi va uning hosildorligini oshirishda mikroblarning rolini va ahamiyatini o'rganadiga fan?
- agromikrobiologiya
- tibbiyot mikrobiologiya
- veterinar mikrobiologiya
- kosmos mikrobiologiya

150. Fazodagi mikroorganizmlarning faoliyatini o'rganadigan fan?
- kosmos mikrobiologiya
- veterinar mikrobiologiya
- agromikrobiologiya
- tibbiyot mikrobiologiya

151. Sanoat mikrobiologiyasi nimani o'rganadi?
- turli xil sanoatda mikroblarning foydali va zararli tomonlarini o'rganadi
- hayvonlarda kasallik keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarni o'rganadi
- o'simliklarda kasallik chaqiruvchi mikroblar haqida o'rganadi
- odam organizmida kasallik keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarni o'rganadi

152. Tibbiyot mikrobiologiyasi qanday qismlarni o'z ichiga oladi?
- umumiy mikrobiologiya
- xususiy mokrobiologiya
- sanitariya mikrobiologiyasi
- barcha javoblar to'gri

153. Aralash kultura deganda nimani tushinasiz?
- bir necha turdagi mikroblardan tashkil topgan kultura
- bir turdagi mikroblardan tashkil topgan kultura
- uchta turdagi mikroblardan tashkil topgan kultura
- mikroblardan tashkil topmagan kultura

154. Xlorofildan mahrum bo’lgan bir hujayrali organizmlarga nima deyiladi?

- bakteriyalar
- zamburug’lar
- sodda jonivorlar
- spiroxetalar

155. Tashqi muhit omillari ta’sirida bakteriyalarning shaklini o’zgarishi nima deb ataladi?
- polimorfizm
- sof kultura
- aralash kultura
- anaerob

156. Mikroorganizmlar oziqlanishiga ko’ra qanday guruhlarga bo’linadi?
- autotroflar, geterotroflar
- aeroblar, anaeroblar
- monotrix, peretrix
- fakultativ anaeroblar

157. Autotroflar – bular ……
- oddiy noorganik birikmalardan murakkab organik birikmalarni sintezlaydi
- o’sib rivojlanishi uchun tayyor organik birikmalarga muhtoj
- o’sib rivojlanishi uchun kislorodli muhitlarga muhtoj
- o’sib rivojlanishi uchun kislorodsiz muhitlarga muhtoj

158. Geterotroflar – bular ……
- o’sib rivojlanishi uchun tayyor organik birikmalarga muhtoj
- oddiy noorganik birikmalardan murakkab organik birikmalarni sintezlaydi
- o’sib rivojlanishi uchun kislorodli muhitlarga muhtoj
- o’sib rivojlanishi uchun kislorodsiz muhitlarga muhtoj

159. Parazitlar – bular ……
- tirik organism hisobiga hayot kechiradi
- o’sib rivojlanishi uchun tayyor organik birikmalarga muhtoj
- oddiy noorganik birikmalardan murakkab organik birikmalarni sintezlaydi
- o’sib rivojlanishi uchun kislorodli muhitlarga muhtoj

160. Kislorodli muhitda yashay oladigan mikroblar qanday nomlanadi?
- aerob mikroblar
- anaerob mikroblar
- fakultativ anaerob mikroblar
- saprofit mikroblar

161. Kislorodsiz muhitda yashay oladigan mikroblar qanday nomlanadi?
- anaerob mikroblar
- aerob mikroblar
- fakultativ anaerob mikroblar

- saprofit mikroblar

162. Kislorodli va kislorodsiz muhitda yashay oladigan mikroblar qanday nomlanadi?
- fakultativ anaerob mikroblar
- aerob mikroblar
- anaerob mikroblar
- saprofit mikroblar

163. Aseptika deb nimaga aytiladi?
- fizilaviy usulda ifloslangan ob'ektdagi mikroblarga to'sqinlik qilish chora tadbirlari
- kimyoviy usulda ifloslangan ob'ektdagi mikroblarga to'sqinlik qilish chora tadbirlari
- biologik usulda ifloslangan ob'ektdagi mikroblarga to'sqinlik qilish chora tadbirlari
- barcha usullarda ifloslangan ob'ektdagi mikroblarga to'sqinlik qilish chora tadbirlari

164. Antiseptika deb nimaga aytiladi?
- kimyoviy usulda ifloslangan ob'ektdagi mikroblarni yo'q qilish chora tadbirlari
- fizilaviy usulda ifloslangan ob'ektdagi mikroblarga to'sqinlik qilish chora tadbirlari
- biologik usulda ifloslangan ob'ektdagi mikroblarga to'sqinlik qilish chora tadbirlari
- barcha usullarda ifloslangan ob'ektdagi mikroblarga to'sqinlik qilish chora tadbirlari

165. Faglar nima?
- mikroorganizmlar virusi
- mikroorganizmlar yadrosi
- mikroorganizmlar metoxondriyasi
- mikroorganizmlar

166. Antigen bu…….
- organizm uchun begona modda
- organizm uchun faydali modda
- organizmni o'stiradigan modd
- organizmni ko'payishiga yordam beradigan modda

167. Antitelo bu…….
- antigenlar ta'sirida hosil bo'ladigan immun globulin moddasi
- organizm uchun begona modda
- organizmni o'stiradigan modd
- organizmni ko'payishiga yordam beradigan modda

168. Diagnostik zardoblar nima maqsadda qo’llaniladi?
- kasallikkka tashxis qo’yish maqsadida
- kasallikni oldin olish maqsadida
- kasallikni davolashda qo’llaniladi
- preparatni reklama qilishda qollanladi

169. Stafilokokklarning morfologiyasi
- sharsimon, uzum shingiliga o'xshab joylashadi
- sharsimon, zanjirsimon ketma-ket joylashadi
- loviyasimon diplokokklar
- sansetsimon diplokokklar, kapsylaga o'ralgan

170. Kasalxona ichidagi infektsiyani keltirib chiqaruvchi stafilokokkni ko'rsating?
- S.aureus
- S.epidermidis
- S.saprophyticus
- S.tifi

171. Patogen kokklar organizmda qanday jarayonni yuzaga keltiradi?
- yiringli jarayonni
- qon ketishni yuzaga keltiradi
- suyaklarni sinishini yuzaga keltiradi
- tishlarni tushib ketishini yuzaga keltiradi

172. Stafilokokklarning gemolitik toksini organizmga qanday ta’sir ko’rsatadi?
- eritrositlarni parchalaydi
- terida nekrozni yuzaga keltiradi
- hayvonlarni o’limga olib keladi
- ovqatdan zaharlanishni yuzaga keladi

173. Turli xil organizmlarni birgalikda yashashiga nima deyiladi?
- simbioz
- metabioz
- antagonizm
- aseptika

174. Bir turdagi organizm boshqa turdagi organizm yashashiga to'sqinlik qilishiga nima deyiladi?
- simbioz
- metabioz
- antagonizm
- aseptika

175. Bir turdagi organizm boshqa turdagi organizm yashashiga sharoit yaratib berishiga nima deyiladi?
- simbioz
- metabioz
- antagonizm
- aseptika

176. Sut mahsulotlarini sterillash uchun qaysi usuldan foydalailadi?
- pasterizatsiya
- olovda kuydirish
- quruq bug’ yordamida
- tindalizasiya.

177. Antiseptik moddalarga nimalar misol bo’ladi ?
- brilliant yashili, kaliy permaganat, moychechak
- yod, yodoform, isiriq
- vodorod, peroksid, damlamalar
- gidropirit, furasilin

178. Yorug’lik mikroskopining kattalashtirish qobiliyati (imkoniyati) – bu:
- ikkita yaqin joylashgan nuqtani ajratish imkonini beruvchi qobiliyat
- ob'ekt harakatini kuzatish imkoniyati
- ob'ekt o’lchamini aniqlash imkoniyati
- immersion tizimning sindirish ko’rsatkichi

179. Spora qanday usulda bo’yalib, aniqlanadi:
- Gram usuli bo’yicha
- Neysser usuli bo’yicha
- Ojeshko usuli bo’yicha
- Ziryanov usuli bo’yicha

180. Fiksatsiyalangan surtma tayyorlanganda buyum oynachasi qaerda turishi lozimligini ko’rsating:
- stol ustida
- tizzada
- shtativda
- Petri kosachasida

181. Disk usulida antibiotikogramma aniqlanganda natija qanday hisoblanadi:
- fotokolorimetrik
- oziq muhit rangining o’zgarishiga ko’ra
- tiniqlik darajasiga ko’ra
- kultura o’sishi to’xtagan zona diametriga ko’ra

182. Disk usulida antibiotikogramma aniqlanganda natijani baholash qanday o’tkaziladi:
- kultura o’sishi to’xtagan zona diametriga ko’ra
- kultura o’sishi to’xtagan chegaraviy zona kattaligini solishtirish orqali
- Berji aniqlagichi bo’yicha
- Vidal spravochnigi bo’yicha

183. Katta odam yo’g’on ichagi me'yoriy mikroflorasi tarkibiga kirmaydigan mikrobni ko’rsating:
- bifidobakteriyalar
- rikketsiyalar
- enterokokklar
- enterobakteriyalar

184. Burun mikroflorasida eng ko’p uchraydigan mikrobni ko’rsating:
- stafilokokklar
- enterobakteriyalar
- laktobatsillalar
- enteroviruslar

185. Og’iz bo’shlig’i me'yoriy mikroflorasi tarkibiga kirmaydigan mikrobni ko’rsating:
- streptokokklar
- aktinomitsetlar
- gonokokklar
- fuzobakteriyalar

186. Teri mikroflorasida eng ko’p uchraydigan mikrobni ko’rsating:
- kokklar
- batsillalar
- klostridiyalar
- spiroxetalar

187. Qin mikroflorasida eng ko’p uchraydigan mikrobni ko’rsating:
- laktobatsillalar
- bakteroidlar
- fuzobakteriyalar
- veylonellalar

188. Disbakterioz so’zi nimani anglatadi:
- kasalxona ichi infektsiyasi
- kontakt yo’l bilan yuqadi
- mikroflora tarkibining miqdor va sifat jihatdan o’zgarishi
- avloddan avlodga o’tadi

189. Ichak disbakterioziga tekshirish uchun ko’rsatma bo’ladigan holatni ko’rsating:
- ichakning uzoq davom etgan disfunktsiyasi
- umumovqatlanish tizimida ishlovchilar
- bolalar muassasalarida ishlash
- donor sifatida qon topshirish

190. Ichak disbakteriozi qanday aniqlanadi:
- bakteriologik tekshirishlarda
- serologik tekshirishlarda
- allergologik tekshirishlarda
- tekshiriluvchilar so’ziga ko’ra

191. Bakterial vaginozda xavfli holatlarga kirmaydi:
- bachadon va uning ortiqlari kasalliklari
- virusli infektsiyalar faollashuvi
- jinsiy yo’l bilan yuqadigan infektsiyalarning rivojlanishi
- yurak-qon tomirlar kasalliklarining rivojlanishi

192. Immunitet turlariga kirmaydi:
- orttirilgan
- hujayraviy
- antitoksik
- antimikrob

193. Faol, tabiiy orttirilgan immunitetga qanday immunitet kiradi:
- postinfektsion
- postvaktsinal
- platsentar
- zardobli

194. Sust, tabiiy orttirilgan immunitetga xossalariga kirmaydi:
- ona suti orqali o’tadi
- platsentar
- 6-12 oy davom etadi
- antitelolar bilan aniqlanadi

195. Serologik reaktsiya – bu ..... reaktsiya:
- bakteriyalar va bakteriofaglar o’rtasidagi
- antitelolar o’rtasidagi
- antigenlar o’rtasidagi
- antitelo va va antigen o’rtasidagi

196. Agglyutinatsiya reaktsiyasiga xos xususiyatni ko’rsating:
- eruvchan antigenning cho’kishi
- korpuskulyar antigenning cho’kishi

- komplementning bog’lanishi
- immun gemoliz

197. Agglyutinatsiya reaktsiyasining turlariga kirmaydi:
- kengaytirilgan
- bilvosita gemagglyutinatsiya
- pretsipitatsiya
- buyum oynachasida

198. Serodiagnostikada AR qo’yish uchun bemordan qanday namuna olinadi:
- zardob
- diagnostikum
- kultura
- fiziologik eritma

199. Bo’g’ma qo’zg’atuvchisining toksigenligini aniqlashda qanday presipitasiya reaksiyasi qo’llanilishini ko’rsating:
- halqa pretsipitatsiya
- geldadagi
- kengaytirilgan
- bilvosita

200. Kuydirgining pretsipitatsiyalovchi zardobi tarkibida mavjud:
- kuydirgi qo’zg’atuvchisi
- kuydirgi batsillasining toksini
- kuydirgi batsillasining maxsus antigeniga qarshi antitelo
- me'yoriy antitelo

201. Komplement bog’lanish reaksiyasi qanday ingredientni faollanishiga asoslangan:
- antigenlarni
- antiteloni
- eritrotsitlarni
- komplementni

202. Pretsipitatsiya reaktsiyasi – bu:
- eruvchan antigenning cho’kishi
- antigen-antitelo o’zaro ta'sirlashuvi
- serologik reaktsiya
- hujayraviy immunitetning realizatsiya mexanizmi

203. Komplementni bog’lash reaktsiyasi qaysi kasallik diagnostikasida qo’llanilmaydi:
- zahmda
- so’zakda

- virusli infektsiyalarda
- disbakteriozda

204. Fagotsitar nazariya asoschisini toping:
- I.I. Mechnikov
- P. Erlix
- R. Kox
- L. Paster

205. Vaktsinalar tarkibiga kirmaydi:
- tirik patogen mikroorganizmlar
- o'lik patogen mikroorganizmlar
- tirik attenuirlangan shtammlar
- mikroorganizmlarning zararsizlantirilgan toksinlari

206. Vaktsinalar qanday immunitet hosil qiladi:
- zardobdan keyingi immunitet
- passiv immunitet
- aktiv immunitet
- turga immunitet

207. Tirik vaktsinalar qanday mikroorganizmlardan iborat:
- dastlabki virulentlikka ega
- antigenlik xossasiga ega
- virulentligi pasaytirilgan
- virulentligi oshirilgan

208. Vaktsinalarning qanday turi mavjud emas:
- tirik (attenuirlangan)
- o'lik (inaktivlangan)
- anatoksinlar
- yarimsintetik

209. Anatoksin o'z tarkibida saqlaydi:
- somatik antigenni
- zararsizlantirilgan bakterial ekzotoksinni
- zararsizlantirilgan bakterial endotoksinni
- bakterial ekzotoksinni

210. Botulizm anatoksini qanday immunitet hosil qiladi:
- Antibakterial
- antitoksik
- antiprotozoy
- antigelmint

211. Immunoglobulinlar qanday olinishini ko'rsating:

- donorlar qonidan
- otlarni giperimmunizatsiyalash yo’li bilan
- abort qonidan
- platsentar qondan

212. Stafilokokklar qaysi oila vakillari hisoblanadi:
- Rlanococcus
- Enterococcus
- Staphylococcus
- Streptococcus

213. S.aureus uchun xos bo’lmagan belgini ko’rsating:
- spora hosil qilishi
- maltozani oksidlashi
- koagulaza faolligi
- letsitinaza faolligi

214. Stafilokokklar uchun elektiv muhitni ko’rsating:
- GPA
- GPB
- tuxumli-tuzli agar (TTA)
- Endo

215. Stafilokokkli infektsiyalarda infektsiya manbaini ko’rsating:
- kasallar, bakteriya tashuvchilar
- tibbiy anjomlar
- suv
- kundalik predmetlar

216. Stafilokokkli infektsiyalarda yuqish yo’liga kirmaydi:
- transmissiv
- alimentar
- kontakt
- havo- tomchi

217. Stafilokokklar keltirib chiqaradigan kasalliklarni ko’rsating:
- furunkul
- mastit
- zotiljam
- barchasi to’g’ri

218. Stafilokokk infektsiyalari patogenezi uchun xarakterli emas:
- organotroplik
- shilliq qavatlarga nisbatan teri ko’p jarohatlanadi
- abstsess holiga o’tishi
- bakteremiya

219. Stafilokokk infektsiyalarining bakteriologik tekshiruvida qanday namuna olinmaydi:
- yiring
- qon
- zardob
- balg'am

220. Stafilokokk infektsiyalarining mikrobiologik tekshiruvidagi asosiy usulni ko'rsating:
- serologik
- biologik
- bakteriologik
- mikroskopik

221. Stafilokokk infektsiyalarini maxsus davolashda qo'llanilmaydi:
- antistafilokokk immunoglobulini
- polivalentli stafilokokk bakteriofagi
- stafilokokk anatoksini
- antibiotiklar

222. Streptokokkli anginaning immun asoratini aniqlang:
- Revmatizm
- glomerulonefrit
- scarlatina
- endokardit

223. Qaysi kasallikda balg'am tekshiriladi:
- Gripp
- bo'g'ma
- ko'kyo'talda
- silda

224. Streptokokklar qaysi avlod vakillari hisoblanadi:
- Neisseriasicca
- Mikrococcus
- Enterococcus
- Streptococcus

225. Streptokokklarni ajratib olish uchun ishlatiladigan oziq muhitni aniqlang
- tuxumli-tuzli agar
- qonli agar
- Endo
- GPA

226. Pnevmokokklar uchun xos emas:
- diplokokklar, grammusbat
- lantsetsimon
- loviyasimon
- organizmda kapsula hosil qiladi

227. Pnevmokokklar virulentligining asosiy omili:
- ekzotoksin
- endotoksin
- kapsula
- nukleoid

228. Krupoz zotiljam qo'zg'atuvchisini aniqlang:
- S.pyogenes
- S.pneumoniae
- S.agalactiae
- E.faecium

229. Qaysi qo'zg'atuvchi uchun maxsus profilaktika ishlab chiqilgan:
- S.pyogenes
- S.pneumoniae
- S.agalactiae
- E.faecium

230. Meningokokk qaysi turga kiradi:
- Neisseriasicca
- N. Meningitidis
- N. Gonorrhoeae
- N. Subflava

231. Meningokokklar uchun nima xos emas:
- grammanfiy
- diplokokk
- spora hosil qiladi
- harakatsiz

232. Meningokokkli infektsiya:
- ichak infektsiyasi
- virusli infektsiya
- sekin kechuvchi infektsiya
- havo – tomchi

233. Meningokokkli infektsiyalarning yuqish yo'lini ko'rsating:
- havo – tomchi
- alimentar
- transplatsentar

- havo - chang

234. Meningokokkli infektsiyaning mikrobiologik diagnostikasi uchun qanday namuna olinmaydi:
- qon
- qon zardobi
- likvor
- orqa miya suyuqligi, balg’am

235. Meningokokkli meningit ekspress-diagnostikasi nimani tekshirishga asoslangan:
- o’zg’atuvchining serovarini
- orqa miya suyuqligidagi maxsus antigenni
- antiteloning umumiy titri
- antitelo titrining ortishini

236. Gonokokk meningokokkdan nimasi bilan farq qiladi:
- tuzilishi
- tashqi muhit ta'siriga chidamliligi
- biokimyoviy xususiyati
- oziq muhitga talabchanligi

237. Gonokokkli infektsiyada kirish darvozasi hisoblanmaydi:
- uretraning shilliq qavati
- bachadon bo’ynining shilliq qavati
- shikastlangan teri
- ko’z kon'yunktivasi

238. Gonokokklar qaysi avlodga mansub:
- Staphylococcus
- Streptococcus
- Micrococcus
- Neisseria

239. Gonokokklar uchun xos emas:
- grammanfiy, loviyasimon shaklda
- lantsetsimon shaklda
- diplokokk
- spora hosil qilmaydi

240. Gonokokkli infektsiya hisoblanadi:
- antroponoz
- Zoonoz
- tabiiy- o’choqli
- o’ta xavfli

241. So’zak kasalligida infektsiya manbai hisoblanadi:
- uy hayvonlari
- kundalik buyumlar
- tibbiy jihozlar
- kasallar

242. So’zak kasalligining yuqish yo’li hisoblanadi:
- antibiotiklarni vena orqali yuborish
- qo’l berib ko’rishish
- umumiy kundalik predmetlardan foydalanish
- jinsiy

243. So’zakni mikrobiologik tekshirishda tekshiriluvchi material hisoblanmaydi:
- uretradan ajralgan yiring
- ertalabki siydik portsiyasi
- bachadon bo’ynidan ajralgan yiring
- burun shilliq qavati ajralmasi

244. Stafilokokklarningdermonekrotik toksini organizmga qanday ta’sir ko’rsatadi?
- terida nekrozni yuzaga keltiradi
- eritrositlarni parchalaydi
- hayvonlarni o’limga olib keladi
- ovqatdan zaharlanishni yuzaga keladi

245. Stafilokokklarning letal toksini organizmga qanday ta’sir ko’rsatadi?
- hayvonlarda o’limga olib keladi
- terida nekrozni yuzaga keltiradi
- eritrositlarni parchalaydi
- ovqatdan zaharlanishni yuzaga keladi

246. Stafilokokklarning enterotoksini organizmga qanday ta’sir ko’rsatadi?
- ovqatdan zaharlanishni yuzaga keladi
- terida nekrozni yuzaga keltiradi
- hayvonlarni o’limga olib keladi
- eritrositlarni parchalaydi

247. Skarlatinani keltirib chiqaruvchi mikrobni ko'rsating ?
- streptokokk
- stafilokokk
- pnevmokokk
- miningokokk

248. α – gemolitik streptokokklar qonli muhitda qanday o’sadi?
- koloniya atrofida yashillanuvchi gemoliz zonasini hosil qiladi

- oq, sariq, tillarang koloniya hosil qilib o’sadi
- qora-yahil ragli koloniya hosil qilib o’sadi
- malina rangli koloniya hosil qilib o’sadi

249. β– gemolitik streptokokklar qonli muhitda qanday o’sadi?
- koloniya atrofida gemoliz zonasini hosil qiladi
- Oo, sariq, tillarang koloniya hosil qilib o’sadi
- qora-yahil ragli koloniya hosil qilib o’sadi
- malina rangli koloniya hosil qilib o’sadi

250. Ichak tayoqchasi Endo muhitida qanday o'sadi?
- metall yaltiroq malina rangli koloniya hosil qilib
- oq koloniya hosil qilib
- qora-yashil koloniya hosil qilib
- simob tomchisiga o'xshash koloniya hosil qilib

251. Salmonellalar qaysi uglevodni parchalamaydi?
- saxaroza
- glyukoza
- mannit
- maltoza

252. Uch xil uglevod saqlovchi muhitning tik qismi o’zgarib, qiya qismi o’zgarmagan. Siz qaysi qo’zg’atuvchiga taxmin qilasiz?
- qorin tifi
- paratif A
- paratif B
- ichak tayoqchasi

253. Uch xil uglevod saqlovchi muhitning tik qismi rangi o’zgarib, gaz hosil bo’lib,qiya qismi o’zgarmagan. Siz qaysi qo’zg’atuvchiga taxmin qilasiz?
- qorin tifi
- paratif A
- paratif B
- ichak tayoqchasi

254. Uch xil uglevod saqlovchi muhitning tik qismi rangi o’zgarib, gaz hosil bo’lib, qora asos ham hosil qilgan bo’lsa ,qiya qismi o’zgarmagan. Siz qaysi qo’zg’atuvchiga taxmin qilasiz?
- qorin tifi
- paratif A
- paratif B
- ichak tayoqchasi

255. Tovun qo'zg'atuvchisining morfologiyasi?
- ovalsimon tayoqchalar, harakatsiz nozik kapsula hosil qiladi

- vergulsimon,harakatchan, hivchini monotrix joylashgan
- mayda, tayoqchasimon, harakatchan
- mayda, yo'g'on tayoqchalar, harakatsiz juft yoki zanjirsimon bo'lib joylashgan

256. Toun qo'zg'atuvchisida infeksiya manbayi?
- kemiruvchilar: yumronqoziq, kalamush, sichqon
- odam
- kasal odam
- bakteriya tashuvchi

257. Brutsellyoz qo'zg'atuvchisini odamning qaysi organidan ajratib olingan?
- taloqdan
- miyadan
- buyrakdan
- oshqozon ichak sistemasidan

258. Brutsellyoz kasalligida infeksiya manbayi?
- yirik va mayda shoxli hayvonlar
- kemiruvchilar:ayniqsa suv kalamushlari uy sichqonlari
- qon so’ruvchi hashoratlar
- pashsha, suvaraklar

259. Homilador ayollar albatta nimaga tekshiriladi?
- brusellyozga
- vaboga
- bo’g’maga
- ko’kyo’talga

260. Qoqshol kasalligining maxsus profilaktikasida qanday vaksina ishlatiladi?
- AKDS qilinadi
- BTsJ vaktsinasi yuboriladi
- STI qilinadi
- Gayskiy, E'lbert tirik vaksinasida bo'ladi

261. Gazli gangrenani keltirib chiqaradigan kasalligining harakterli belgisi?
- mikrob sog'lom to'qimani shikastlaydi va nekrozga uchratadi
- nafas muskullarini qisqarishi natijasida asfiksiyadan odam oladi
- ko’rish azolari, nafas olish va yutish funksiyalari yuzaga keladi
- yurak infarkti yuzaga keladi

262. Ko'kyo'tal qo'zg'atuvchisini qnday muhitda o’stiriladi?
- KUA myhitida
- Vismut sulfit agarda
- Levina muhitida

- Endo muhitida

263. Zaxm qo'zg'atuvchisini topgan olim?
- Shaudin
- L.Paster
- R.Kox
- Mechnikov

264. Zaxm kasalligining tarqalish yo'li?
- to'g'ri kontakat
- alimentar
- suv orqali
- transmissiv yo'l orqali

265. Epidemik qaytalama tif qo'zg'atuvchisi qanday yuqadi?
- bitlar orqali
- kanalar orqali
- kemiruvchilar orqali
- alimentar yo'l orqali

266. Endemik qaytalama tif qo'zg'atuvchisi qanday yuqadi?
- kanalar orqali
- bitlar orqali
- kemiruvchilar orqali
- alimentar yo'l orqali

267. Rikketsiyalar Zdradovskiy usulida bo'yalganda qanday rangda ko'rinadi?
- qizil
- binafsha
- sariq
- qora

268. Bit orqali yuqadigan kasalikni ko'rsating?
- epidemik toshmali tif
- so’zak
- Zaxm
- leptospiroz

269. Kana orqali yuqadigan kasalikni ko'rsating?
- endemik toshmali tif
- so’zak
- zaxm
- leptospiroz

